

INGICHKA TOLALI TERMIZ-202 G'O'ZA NAVINI PARVARISHLASH**Avazova Muhayyo Ashurali qizi**

Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot
institute Stajyor tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13318997>

Annotatsiya. Ushbu maqolada janubiy mintaqa sug'oriladigan taqirsimon tuproqlari sharoitida ingichka tolali Termiz-202 g'o'za navini parvarishlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация о выращивании тонковолокнистого сорта хлопчатника Термиз-202 в условиях южных регионов.

Annotation. Growing fine-stapled cotton variety Termiz-202 in irrigated takyr soils of southern zones are presented in the article.


Kalit so'zlar: ingichka tolali Termiz-202 g'o'za navi, parvarishlash, sug'oriladigan taqirsimon tuproqlar.

Ключевые слова: тонковолокнистый сорт хлопчатника Термиз-202, выращивания, орошаемые такыровидные почвы.

Key words: fine-stapled cotton variety Termiz-202, growing, irrigated takyr soils.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 martdagi «Surxondaryo viloyatida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda amalga oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-170 sonli qarorida ingichka tolali paxta yetishtirishni ilmiy asosda tashkil etish va resurstejamkor agrotexnologiyalarni keng qo'llash bo'yicha bir qator vazifalar belgilangan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda olimlarimiz tomonidan yaratilgan davlat reestriga kiritilgan va istiqbolli nav sifatida qabul qilingan ingichka tolali g'o'za navlarini parvarishlash agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bilan birga keng miqyosda joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlarni jadallik bilan olib borishda ushbu tadqiqot yuqoridagi qarorlar ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi. Jahonda paxta tolasi ishlab chiqarishda ingichka tolali g'o'zalar o'rta tolali g'o'zalardan keyingi ikkinchi o'rinda turadi va ko'p mamlakatlarda katta maydonlarga ekiladi. Bu navlar O'rta Osiyoning keskin kontinental jazirama iqlimiga va boshqa agroekologik sharoitiga yaxshi moslashgan. Tezpisharligi, issiqqa chidamliligi va ildiz tarmog'ining baquvvatligi bilan ajralib turadi. Tolasidan (I, II, III tipli) yuqori sifatli, nafis gazlamalar, pishiq texnika buyumlari tayyorlanadi. Ingichka tolali g'o'za navlarini etishtirishda iqlim sharoiti juda qulay hisoblangan Misrning poytaxti Qohirada samarali harorat – 3281oS, Aleksandriyada 3030oS bo'lsa,



Sherobodda 3357oS, Termizda 2924oS, Qarshida 2812oS ni tashkil etadi (<http://link.springer.com>).

Gossypium Barbadense L. turiga mansub g'o'za navlari AQShning Arizona shtatida 1912 yildan boshlab ekila boshlangan bo'lib, oldinlari ushbu ingichka tolali g'o'za navlari 100 sm qator oralig'ida parvarishlangan bo'lsa, hozirda eng maqbul qator oralig'i 76 sm ekanligi aniqlangan. Shuningdek AQShda Pima ya'ni, ingichka tolali g'o'za navlari shoxlanganligi uchun ham ko'chat qalinligi 50 mingdan 120 ming tupgacha qoldirilib kelinmoqda (ag.arizona.edu/pubs/health/az1242.pdf).

Ingichka tolali g'o'za navlari uchun yillik foydali harorat yig'indisi 2100-2200 gradusdan kam bo'lmasligi talab etiladi. Bu navlarning ko'saklari etilib pishgunga qadar 110-120 kundan 140-150 kun vaqt o'tadi. Tolasi V tipga kiruvchi o'rta tolali navlarning 1 tonna tolasidan 8620 m² gazlama tayyorlansa, tolasi I tipga kiruvchi ingichka tolali navlarning 1 tonna tolasidan 15150 m² gazlama tayyorlanadi. Paxtadan 29-36 % sof tola chiqadi. Tola uzunligi 36-42 mm. Ingichka tolali g'o'za o'g'itlarga ancha talabchan bo'lganligi uchun u o'rta tolali g'o'zaga nisbatan 10-15 % ortiq beriladi (<http://tadbirkor-fermer.uz/ingichka-tolali-uza-ustirish/>).

Sanoatda 227 kg ingichka tolali paxta tolasidan 215 juft jinsi, 250 dona choyshab, 750 dona ko'ylaklar, 1200 dona futbolklar, 2100 juft bokschar kiyimi, 3000 dona maykalar, 4300 juft paypoqlar olish mumkin (https://cals.arizona.edu/fps/sites/cals.arizona.edu/fps/files/cotw/Pima_Cotton.pdf).

S.Raxmonqulov va boshqalarning tajribalarida aniqlanishicha, 2015-2017 yillarda Termiz tumanida tabiiy garmisel sharoitida o'rta tolali g'o'za navlari bilan birgalikda ingichka tolali g'o'za navlarining yuqori harorat va garmiselga bardoshlilikini taqqoslanganda, ingichka tolali g'o'za navlari ushbu omillarga bardoshlilik bo'yicha ustunligi yaqqol namoyon bo'lganligini, Termiz-202 va Termiz-208 g'o'za navlari o'rtacha 25,4 va 28,7 s/ga ni tashkil etib, hosil elementlarini to'kilishiga bardoshlilik namoyon etilgan (Raxmonqulov S va boshqalar., 2018).

B.Jo'raev va boshqalarning tajribalarida shuni ko'rish mumkinki, ingichka tolali "Surxon-16" g'o'za navida o'suv shoxlari paydo bo'lmasligi sababli, ko'chat qalinligini 60x10-1 sxemada gektariga 120-125 ming tupgacha va qo'shqator ekilganda 135-145 ming tupgacha qoldirish maqbul ekanligi ta'kidlanib, Surxon tajriba xo'jaligida 2012 yilda ekilganda 35,2 s/ga, 2013 yilda 37,1 s/ga, 2017-2018 yillarda 38-39 s/ga hosil olingan (Jo'raev va boshqalar., 2020).




J.Boyniyozov va boshqalarning olib borgan ilmiy ishlarida “Surxon-16” g’o’za navi cheklangan shoxlanishga ega bo’lib, hozirgi kundagi talablarga to’liq javob berishi, “Surxon-16” navida o’suv shoxlari paydo bo’lmasligi sababli, ko’chat qalinligini 60x10-1 sxemada gektariga 120-125 ming tupgacha va qo’shqator ekilganda 135-145 ming tupgacha qoldirish maqbul ekanligini ta’kidlagan (Boyniyozov J va boshqalar., 2020).

Prezidentimizning 2019 yil 17-18 oktyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi doirasida olimlar va fermerlar bilan ingichka tolali g’o’za dalasida bo’lib o’tgan uchrashuvda ingichka tolali g’o’za navlarini ko’paytirish va ekin maydonlarini kengaytirish bo’yicha topshiriga ko’ra 2020 yilda Surxondaryo viloyatida 40 ming, Qashqadaryo viloyatida 6,5 ming, Buxoro viloyatida 5 ming, Navoiy viloyatida 1 ming gektarga ekilishi ta’minlandi.

Yuqoridagi topshiriq asosida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 30 yanvarda “Ingichka tolali paxta etishtirishni samarali tashkil qilish, yangi navlarni ko’paytirish va rag’batlantirish mexanizmini joriy etish to’g’risida”gi 47-sonli qarori qabul qilinib, qarorga ko’ra hududlarning tuproq-iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda ingichka tolali g’o’zaning tola sifati yuqori bo’lgan, kasallik va zararkunandalarga chidamli, tezpushar, serhosil navlarini yaratish, ularning ekin maydonlarini kengaytirish, yangi va istiqbolli navlari urug’larini ko’paytirish hamda etishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan. Shuningdek, yangi ingichka tolali g’o’za navlarini yaratish, urug’chiligini tashkil etish hamda parvarishlashning samarali agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo’yicha olimlarimiz oldiga bir qator dolzarb vazifalar qo’yildi. 2019 yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko’ra, nazorat Termiz-202 g’o’za navida terimlar bo’yicha hosildorlik tegishli, 27,4; 5,8; 2,3 s/ga ni, o’rtacha 35,5 s/ga ni tashkil etdi. Lolotan-14 g’o’za navi ChDNSga nisbatan 65-65-60 % sug’orish oldi tuproq namligida sug’orilib, 110-120 ming tup/ga ko’chat qalinligida terimlar bo’yicha 22,7 s/ga, 7,9 s/ga, 4,2 s/ga, jami 34,8 s/ga ni, xuddi shu ko’chat qalinligi va ChDNSga nisbatan 70-75-65 % sug’orish oldi tuproq namligida sug’orilganda esa hosildorlik 39,0 s/ga ni tashkil etib, sug’orish tartiblarining 65-65-60 % dan 70-75-65 % oshirilishi hosildorlikning 4,2 s/ga oshishini ta’minlaganligi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Boyniyozov J. va boshqalar. Yuqori samarador ingichka tolali “Surxon-16” g’o’za navi. O’zbekiston qishloq va suv xo’jaligi jurnali agroilm ilmiy ilovasi. Toshkent, - 2020 y. № 3 (66). B– 15-16.



2. Jo'raev B., Xudarganov K., Juraev J. Yuqori samarador ingichka tolali "Surxon-16" g'o'za navi. // O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali agroilm ilmiy ilovasi. Toshkent, - 2020 y. № 3 (66). B- 15-16.
3. Raxmonqulov S., Charieva X., Jalolov X., Ochildiev N., Danabaev A. Ingichka tolali g'o'za navlarining afzaliklari. // "Qishloq xo'jaligi ekinlari genetikasi, seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotekhnologiyalarining dolzarb muammolari hamda rivojlantirish istiqbollari" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. Toshkent, 2018 y. -B. 102-108.
4. <http://tadbirkor-fermer.uz/ingichka-tolali-uza-ustirish/>
7. ag.arizona.edu/pubs/health/az1242.pdf
8. https://cals.arizona.edu/fps/sites/cals.arizona.edu.fps/files/cotw/Pima_Cotton.pdf

